

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



B MARKETING E INNOVATSIYA D I BIZNES S RAQAMLI MARKETING V D ELEKTRON TIJORAT

№2-SON

2025-YIL, FEVRAL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Elektron nashr 609 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

AHOLI O'RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI	7
Nazarova Ra'no Rustamovna	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY	17
Nazarova Rano Rustamovna, Jamolov Bejan Xurshidovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	26
Karrieva Yakutjan Karimovna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI HUDUDIY STATISTIK GURUHLASH	33
Akbarova Barno Shuxratovna	
KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI: RAQAMLI MARKETING VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH USULLARI ..	40
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
JIZZAX VILOYATI FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINING STATISTIK TADQIQI	47
Ayubjonov Abbas Xosilovich, Ratayev Faxriddin Irismatovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	58
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA YO'NALTIRILGAN OILAVIY TADBIRKORLIKDA INSON IMKONIYATLARIGA YONDASHUVI	65
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARINING O'RNI VA IQTISODIY FAOLIYATINING STATISTIK TAHLILI	75
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
NEYROMARKETINGNING ZAMONAVIY REKLAMA STRATEGIYALARIGA TA'SIRI	86
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ HO'JALIK MAHSULOTALARI ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI	97
Masharipova Fazilat Axmedovna	
THE IMPORTANCE OF BENCHMARKING IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF MANUFACTURING ENTERPRISES.....	106
Musayeva Shoirazimovna	
KORXONALARNING FAOLIYATIDA DAROMAD VA XARAJAT HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Muxibova Guli Yarkinovna, Turabekova Ominaxon Ulug'bek qizi	
TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	119
Sapayev Axmed Durdibaevich	
"UNIVERSITET 4.0" MODEL: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA UNIVERSITETLARNING RAQAMLI MARKETING YONDASHUVI	127
Xidoyatov Murod Batirovich	
TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI.....	139
Yusupova Mexribon Uktamovna	
MINTAQADA TRANSPORT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQI.....	148
Sapayev Axmed Durdibaevich	
O'ZBEKISTONDA YUK VA YO'LOVCHI TASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	154
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	

BANK XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARNING ROLI.....	162
Azimova Nasiba Shuxratovna	
KORXONALAR FAOLIYATIDA MEHNAT INTIZOMINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI.....	170
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDA MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	176
Davlatov Muradbek Saparboyevich	
SIX MAIN STAGES OF THE SUPPLY PROCESS.....	183
Ergashev Jahongir Bakhodirovich	
O‘ZBEKISTONDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	195
Igamova Shaxinya Zikrilloevna	
XALQARO SAYYOHLIK BOZORIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB TENDENSIYALARI.....	202
Kasimova Zilola G‘ulomiddinovna	
KORXONA IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	210
Qodirov Abduvoxid Abdumannof o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA TUROPERATORLAR FAOLIYATIDA MARKETINGNI TAKOMILLASHTIRISH	220
Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich	
INNOVATSION MENEJMENT TAMOIYILLARI ASOSIDA KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	229
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
THE IMPORTANCE OF OPERATING EXPENSES IN MANAGEMENT COSTS	237
Turdieva Gulaida Omirbayevna, Maulenberganova Khusnida Khursand qizi	
ILM-FAN SOHASIDA BOZOR MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI.....	247
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING KOMPANIYA KAPITAL QIYMATIGA TA’SIRI	255
Urinov Bobur Nasilloevich	
O‘ZBEKISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGI MILLIY TASNIFLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	263
Xamitov Mubin Xabibjonovich	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINING KO‘ZI OJIZLARNING INTELLEKTUAL FAOLIYATIDAGI O‘RNI	276
Mannopova Manzura Jamil qizi	
HUDUDLARDA ENERGIYA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	284
Safarov Akbar Shokirovich	
TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIGA SINERGIYANING TA’SIRI VA UNING ELEMENTLARI	291
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИЯМИ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ	302
Абдурахманов Зафар Мамурович	
ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	311
Карабаева Гулнора Шарафитдиновна,	

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В КИТАЕ .320	
Медынская Ирина Вильевна	
MODA INDUSTRIYASIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH339	
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
KORXONALARNING EKSPORT SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH346	
Jiyamuradov Rustam Nuriddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BIZNES MODELLARINING SHAKLLANISHI351	
Saatova Lolakhon Ergashevna	
MODA INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI359	
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
OLIY TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH367	
Berdiyev Temurbek Maxmudullo o'g'li	
MINTAQALARDA KLASSTERLARNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH376	
Beknazarova Manzura Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARIDA BRENDNI MILLIY AN'ANALARGA MOS RAVISHDA SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI383	
Babaxodjayev Giyosiddin Nasirovich	
THE ROLE OF PROGRAMMATIC ADVERTISING IN DATA-DRIVEN MARKETING: OPTIMIZING TARGETED ADVERTISING STRATEGIES IN THE TOURISM SECTOR392	
Sodikov Mirziyo Odiljon ogli	
UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH, QAYTA QURISH ISHLARIGA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MABLAG'LARINI JALB QILISH400	
Pardayev Fayzulla G'affarovich	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА407	
Гафурова Дилшода Рамазановна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARI: IJTIMOY MEDIA MARKETINGDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI414	
Xamidov Obidjon Xafizovich	
Baxtiyorova Nigina Ulug'bek qizi	
KOMPANIYALAR KAPITAL AKTIVLARINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHLATLARI423	
Bunyod Usmonov Aktam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР427	
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
ИГРЫ И ИГРОВЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ433	
Фозилова Фирангиза Комиловна	
BILIMLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI440	
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI448	
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI458	
Sodiqova Dilafruz Zohid qizi	

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIK YO'NALISHLARNI ANIQLASH	467
Masharipova Shahlo Adambaevna	
MOBIL ALOQA TARMOQLARINING DUNYO IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	478
Dilafroz Aripova	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHNING TASHKILY MOLİYAVIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	489
Naziraliyev Diyorbek Imomali o'g'li	
SUG'URTA KOMPANIYALAR MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH USULLARI	500
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
AGROKLASTER TIZIMIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI VA ULARNI QO'LLASH STRATEGIYALARI.....	509
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	517
Raximov Anvar Norimovich	
MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	527
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
MUHANDISLIK TA'LIM SOHALARI TALABALARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL.	536
Butayev Tuxtasin	
O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	543
Abdusattorov Sarvar Shokirovich	
АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СЕТИ МЕТОДАМИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ.....	552
Алланиязова Айсапа Муратовна	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	564
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	572
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA IFLOSLANISHINI BAHOLASH VA BARQARORLIQNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	584
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
MOLIYAVIY XAVFLAR TASNIFINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	591
Jabborov Azamat	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR INNOVATSION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI.....	596
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY O'ZGARISHLARINI KICHIK BIZNES TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH MASALALARI	602
Elov Olimdjon Komilovich	

MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARI

Ergashev Otamurod Tashtemirovich

PhD, TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali takomillashtirish borasida rivojlangan mamlakatlarining tajribasi o‘rganilgan va rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Shuningdek, istiqbolda kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlarning mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik subyektlari, Yevropa Ittifoqi, kichik va o‘rta biznes, moliya-kredit mexanizmlari, qayta moliyalashtirish stavkasi.

Аннотация

В статье рассматривается опыт развитых стран по совершенствованию деятельности малого и среднего бизнеса посредством финансово-кредитных механизмов, анализируются тенденции его развития. Также разъяснена суть планируемых к реализации в дальнейшем мер по стимулированию деятельности субъектов малого и среднего предпринимательства через финансово-кредитные механизмы.

Ключевые слова: Хозяйствующие субъекты, Европейский Союз, малый и средний бизнес, финансово-кредитные механизмы, ставка рефинансирования.

Abstract

The article examines the experience of developed countries in improving the activities of small and medium-sized businesses through financial and credit mechanisms, and analyzes the trends in its development. It also explains the essence of the measures planned for further implementation to stimulate the activities of small and medium-sized businesses through financial and credit mechanisms.

Keywords: Business entities, European Union, small and medium-sized businesses, financial and credit mechanisms, refinancing rate.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda tadbirkorlik subyektlari bozor iqtisodiyotining zaruriy elementlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy o‘rish sur‘atlari, tuzilishi va yalpi ichki mahsulot shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi 40-50 foizni tashkil etadi. Ushbu sektor o‘z mohiyatiga ko‘ra zamonaviy bozor-raqobat xo‘jaligi modelining eng muhim tarkibiy tuzilmalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilgan geosiyosiy keskinliklar natijasida institutsional va iqtisodiy rivojlanishga erishish, ishlab chiqarish hajmi va

mahsulotlar sifatini oshirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali ragʻbatlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-texnika taraqqiyoti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), innovatsion faoliyat va intellektual kapitalga asoslangan holda ilmiy sigʻimi yuqori boʻlgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tadbirkorlik subyektlarining strategik maqsadiga aylanib bormoqda. Innovatsion rivojlanish jarayonlari taʼsirida sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida mahsulotlar sifati va raqobatbardoshlik darajasi ortmoqda. Bu jarayon xalqaro tashqi savdo tarkibida yaqqol namoyon boʻlib, XXI asrdan boshlab yuqori texnologiyalar, litsenziyalar va nou-xau savdosi orqali mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari takomillashmoqda va asta-sekin tabiiy resurslarni qazib chiqarish va birlamchi qayta ishlash tizimlariga integratsiya qilib borilmoqda.

Xalqaro integratsiya jarayonlarining kuchayishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Natijada yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish, past foizda kreditlar jalb etish, ilmiy-tadqiqot ishlari boʻyicha xarajatlarni diversifikatsiyalash, imtiyozli soliqqa tortish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar oʻrtasidagi hamkorlikni ragʻbatlantirish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Oʻlmasov va M.Sharifxoʻjaevlar kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati mohiyatini yoritishga bagʻishlangan tadqiqotlarida “tadbirkorlik faqat pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olish omilidir” [1] deb taʼkidlaydilar.

Iqtisodchi olimlar T.S.Malikov va N.H.Haydarovlar davlat byudjeti kishilik jamiyati taraqqiyotining maʼlum bir bosqichida paydo boʻlgan boʻlib, uning vujudga kelishi, eng avvalo, siyosiy tashkilot sifatida davlatning vujudga kelishi bilan bevosita bogʻliqligini, har bir davr ijtimoiy tuzumiga tegishli boʻlgan ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy belgilari davlat faoliyatining va byudjetning taqsimlash mexanizmi sifatidagi mazmunini belgilaydi deb taʼkidlashgan [2].

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari mohiyatini yoritishda Q.Muftaydinov «Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch boʻlib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va isteʼmol talablarini eʼtiborga olgan holda, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini taʼminlaydi» [3] deya taʼkidlab oʻtgan.

Tadbirkorlik subyektlarini moliya-kredit mexanizmlari orqali ragʻbatlantirish borasida xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniq taʼrif shakllantirilmagan. Rossiyalik olimlar tadbirkorlik subyektlarini ragʻbatlantirishning huquqiy jihatlarini va davlat tomonidan tartibga solinishiga eʼtibor berishadi. Aksincha, xorijiy olimlar nuqtai nazaridan kichik biznes muhitida sodir boʻlayotgan jarayonlar bozor ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabatlar asosida meʼyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi, bu esa kichik biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash muhitidagi tabiiy va bashorat qilinadigan oʻzgarishlarni belgilashda xizmat qiladi. [4, 5, 6, 7].

Tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlarida yuqori sifatli institutsional muhitni shakllantirish uchun sohaga oid ishtirokchilar barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishlari muhimdir. Ushbu hamkorlik iqtisodiy samaradorlik bilan birga ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni ham inobatga olishi lozim.


METODOLOGIYA

Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirish borasidagi xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini mamlakatimiz amaliyotida qo'llash bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy va statistik usullar kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash borasida qator islohotlar amalga oshirilgan. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirish borasida Yevropa davlatlarida kichik va o'rta biznes sektorining (keyingi o'rinlarda KO'B) holatini va uning rivojlanishining miqdoriy va sifat xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.


2003-yil 6-mayda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining 2003/361/EC-sonli Kichik va o'rta biznes (KO'B) tavsiyanomasiga muvofiq, KO'B subyektlari tasniflangan bo'lib, ushbu tavsiyanoma ularning Yevropa Ittifoqi moliyaviy institutlarining qo'llab-quvvatlash dasturlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Quyidagi 1-rasmda Yevropa Ittifoqi tavsiyasiga ko'ra KO'B subyektlari tasniflanishi keltirilgan 1-rasm).



1-rasm. Yevropa Ittifoqi tavsiyasiga ko'ra KO'B subyektlari tasniflanishi [8]

Ushbu tavsif KO'Blarning rasmiy maqomini aniqlash va ularga davlat ko'magi, moliyaviy yengilliklar hamda turli grant va subsidiyalardan foydalanish imkonini berish uchun ishlab chiqilgan.

Kichik biznes va oʻrta korxonalar global iqtisodiyotning asosiy qismidir. Ular ish oʻrinlari yaratib, iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarni ragʻbatlantiradi. 2024-yilda Yevropa Ittifoqida taxminan 26,1 mln. kichik va oʻrta korxonalari faoliyat yuritgan. Bu korxonalarning aksariyati mikrofirmalar shaklida tashkil etilgan boʻlib, jami KOʻBlarning 93,9 foizi (24,5 mln. korxona) ushbu korxonalar hissasiga toʻgʻri kelgan. 1,38 mln. korxona kichik korxona koʻrinishida, 210,2 ming korxona esa oʻrta firma shaklida tashkil etilgan (2-rasm).



2-rasm. 2019-2024-yillarda Yevropa Ittifoqida KOʻB subyektlari soni [9]

Kichik va oʻrta korxonalar Yevropa iqtisodiyotining asosini tashkil qiladi. Bu kompaniyalar Yevropadagi barcha faol korxonalarning qariyb 99,8 foizini tashkil etadi, shu bilan birga Yevropa Ittifoqidagi umumiy qoʻshilgan qiymatning deyarli 52 foizini ishlab chiqaradi. KOʻB korxonalari ayniqsa qishloq hududlari va kichik shaharlar uchun muhim ahamiyatga ega. 2024-yilda Yevropa Ittifoqidagi kichik va oʻrta korxonalar deyarli 90 million kishini ish bilan taʼminlagan. Yevropaning eng yirik iqtisodiyoti Germaniyada kichik va oʻrta korxonalarda 18,3 mln. kishi ishlagan, kichik korxonalarda esa 6,8 mlndan ortiq kishi ish bilan taʼminlangan.

2019-2024-yillar oraligʻida Yevropa Ittifoqidagi kichik va oʻrta biznes korxonalari turli iqtisodiy muammolar, jumladan, COVID-19 pandemiyasi va inflyatsiya bosimi taʼsirida oʻzlarining qoʻshilgan qiymat hissalarida tebranishlarni boshdan kechirdilar.

2019-yilda kichik va oʻrta biznes korxonalari Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotiga 4,5 trln., 2020-yilda 4,2 trln., 2021-yilda 4,6 trln., 2022-yilda 4,8 trln., 2023-yilda 4,7 trln. yevro hissa qoʻshgan boʻlsa, 2024-yilda ushbu koʻrsatkich 5,4 trln. yevroga yetdi.

2020-yilda COVID-19 pandemiyasining boshlanishi kichik va oʻrta biznes qoʻshilgan qiymatining pasayishiga sabab boʻldi, 2023-yilda esa jahonda kuzatilgan geosiyosiy keskinliklar natijasida foiz stavkalari va inflyatsiya darajasining oshishi

KO‘B subyektlari qo‘shilgan qiymatining 1,6 foiz yoki 0,1 trln. yevro pasayishiga olib keldi. 2024-yil holatiga ko‘ra, Yevropa Ittifoqidagi kichik va o‘rta biznes subyektlari qo‘shilgan qiymatga qariyb 5,4 trln. yevro hissa qo‘shgan. Kichik va o‘rta biznes korxonalarining har bir toifasi (mikro, kichik va o‘rta korxonalar) qo‘shilgan qiymatga teng hissa qo‘shgan.

2019-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda Yevropa Ittifoqida kichik va o‘rta korxonalar tomonidan qo‘shilgan qiymat turli iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelganiga qaramay, chidamlilik va moslashuvchanlikni namoyish etdi. Turli o‘lchamdagi kichik va o‘rta korxonalarning izchil hissasi ularning Yevropa Ittifoqining iqtisodiy o‘sishi va bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar KO‘B subyektlarining Yevropa Ittifoqida iqtisodiy qiymat va bandlikni oshirishdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi. 1-jadvalda mamlakatlar bo‘yicha qayta moliyalashtirish stavkasi darajasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

2025-yil holatiga ko‘ra, dunyoning yirik mamlakatlarida qayta moliyalashtirish stavkasi¹

Mamlakat nomi	Qayta moliyalashtirish stavkasi (foizda)
Yevropa Ittifoqi	4,5
AQSh	4,5
Yaponiya	-0,1
Shveysariya	-0,75
Germaniya	3,75
Kanada	4,25
Buyuk Britaniya	4,5
Avstraliya	3,85
Xitoy	3,65
Hindiston	6,5
Braziliya	13,75

KO‘B subyektlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlash Yevropa, Amerika va Osiyoning aksariyat mamlakatlarida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan asosiy chora-tadbirlar hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznes kreditlari uchun kafolatlar moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning eng ustuvor va keng tarqalgan turi hisoblanadi, chunki ular tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda davlatning bevosita ishtirokini talab qilmaydi.

Tadbirkorlikni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashga oid ko‘rib chiqilayotgan mavzu doirasida KO‘B kreditlarini sekyuritizatsiya qilishni ta’minlash bo‘yicha yana bir muhim masalani ko‘tarish zarur. Shuni ta’kidlash kerakki, sekyuritizatsiya — bu qimmatli qog‘ozlarni chiqarish yo‘li bilan muayyan aktivlarni moliyalashtirish. Sekyuritizatsiya predmeti ipoteka kreditlari, avtokreditlar, lizing

¹ Mamlakatlar Markaziy banklari ma’lumotlari asosida tayyorlangan

aktivlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Sekyuritizatsiyaning mohiyati kreditlar pulini ushbu aktivlar bilan ta'minlangan qarz qimmatli qog'ozlariga joylashtirish orqali aktivlarni ko'paytirish qobiliyati hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari amaliyotida Yevropa Markaziy bankining yagona talablariga javob beradigan yagona sekyuritizatsiya standartlari qo'llaniladi. Unga ko'ra:

- Kredit yoki boshqa shartnoma bo'yicha da'voni o'tkazish bo'yicha bitimning standart shakli.

- Qarz oluvchilar/kontragentlarni baholash mezonlari.
- Sekyurizatsiyalash bo'yicha shartnomalar shartlari.
- Aktivni almashtirish tartibi va shartlari.

Yagona standartlarni yaratish investorlarning ishonchini oshirishning muhim sharti ekanligi aniq. Yagona standartlar garov sifatida saqlanadigan aktivlar sifatini nazorat qilish uchun qo'shimcha kafolatlar yaratish orqali moliyaviy vosita sifatini yaxshilashga yordam beradi. Yevropa va AQSh amaliyotida davlat kafolatlari bilan ta'minlangan kichik va o'rta biznes kreditlari sekyuritizatsiya predmeti bo'lib, qarzni moliyalashtirish bozorni rivojlantirishga imkon beradi. Bozor mezonlari kompaniyalarga joriy iqtisodiy vaziyatni hisobga olish va ma'lum prognozlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bunday sharoitda yuqori "xususiy samarani" ta'minlaydigan innovatsion jarayonlarga ustunlik beriladi. Bunda asosiy e'tibor aksiyadorlar tomonidan qo'yilgan kapitalning maksimal daromadlilikiga qaratiladi. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion siyosatni shakllantirishda tizimli yondashuvdan foydalanish, ayniqsa, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari fonida muhim ahamiyat kasb etdi:

- Yuqori sifatli inson kapitali uchun global raqobat innovatsion rivojlanishning asosiy xususiyatiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlarning ortib borayotgan harakatchanligi bilimlarni tarqatish jarayonlarini jadallashtiradi.

- Bilimlarni tarqatish jarayonida axborot texnologiyalarining roli tobora ortib, innovatsion faoliyatning rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda. Ushbu jarayonlar alohida iqtisodiyotlarning chegarasidan chiqib, global miqyosda amalga oshmoqda.

- Globallashtirish kompaniyalarni yanada yuqori texnologiyalar darajasida raqobatlashishga undaydi, shu bilan birga, innovatsiyalarni ixtisoslashtirish va mahalliyashtirish jarayonlarini jadallashtiradi.

Yangi g'oyalar, jozibali yangi mahsulot yoki xizmatlar va yuqori o'sish salohiyatiga kichik va o'rta biznes korxonalari ega. Biroq, ushbu tashkilotlar o'z faoliyatini moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Yevropa Ittifoqi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi, yangi kompaniyalar yaratishni rag'batlantiradi va kichik biznesning rivojlanishiga yordam beradi.

2024-yilda Yevropa investitsiya banki guruhi kichik va o'rta biznes korxonalari faoliyatini moliyalashtirish maqsadida 16,2 mlrd. yevro ajratdi. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun Yevropa investitsiya banki tijorat banklari, lizing kompaniyalari, venchur va xususiy kapital fondlari bilan hamkorlik qiladi. Ushbu tashkilot asosan moliyaviy imkoniyatlari iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladigan hududlarga mablag'larini yo'naltiradi. Xususan, Yevropa Ittifoqida olib borilayotgan

siyosat a'zo davlatlardagi korxonalar uchun biznes sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Yevropa komissiyasi hozirgi iqtisodiy sharoitda kichik va o'rta korxonalari ehtiyojlarini qondirish uchun bir qator tashabbuslarni taqdim etmoqda. Yevropa ittifoqida yashil va raqamli o'tishda kichik va o'rta biznes korxonalari asosiy o'rinni egallaydi. Biroq so'nggi yillardagi kichik va o'rta biznes korxonalari faoliyatida qator inqirozlar natijasida beqarorlik holatlari yuzaga kelmoqda. Xususan, KO'Bning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirish va yagona bozorda adolatni kuchaytirish bo'yicha yangi chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ushbu chora-tadbirlar doirasida Komissiya "Tijorat operatsiyalarida kechiktirilgan to'lovlar to'g'risida"gi nizomiga va "KO'B uchun bosh ofis soliq tizimini yaratish to'g'risidagi direktiva"siga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

"Tijorat operatsiyalarida kechiktirilgan to'lovlar to'g'risida"gi nizomining asosiy maqsadi kichik va o'rta biznes korxonalarini kechiktirilgan to'lovlar sababli yuzaga keladigan pul oqimining uzilishidan himoya qilish va bu orqali ishbilarmonlik munosabatlarida hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat. Shuningdek, ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida kichik va o'rta biznesning moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, ularni to'liq iqtisodiy salohiyatga erishishi uchun o'rta darajadagi kompaniyalarga aylanishini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar belgilab olingan. Direktivada belgilanishicha qarzdorlar majburiyatini belgilangan muddatda so'ndirmagan taqdirda foiz va kreditorning asosli xarajatlarini qoplashga majbur bo'ladi. To'lov muddati korxonalar uchun 60 kun, davlat organlari uchun esa 30 kun etib belgilangan.

"KO'B uchun bosh ofis soliq tizimini yaratish to'g'risidagi direktiva"siga muvofiq, doimiy muassasalar orqali transchegaraviy faoliyat yurituvchi KO'Blarga bir nechta soliq organlari bilan emas, balki faqat bitta soliq ma'muriyati, ya'ni bosh ofis bilan ishlash imkoniyatini taqdim etadi. Natijada soliqqa tortish jarayonlari soddalasadi va shaffofligi oshadi. Shu bilan birga, ikki tomonlama va ortiqcha soliqqa tortish hamda soliq nizolari riskini pasaytirishga xizmat qiladi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta korxonalar soliq bilan bog'liq ortiqcha to'siqlarga duch kelmasdan, biznesni tashkil etish erkinligi va kapitalning erkin harakatlanishidan to'liq va samarali foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Komissiyaning xabarnomasi ularning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanishini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni taklif qilgan:

- KO'B uchun ma'muriy tartib-qoidalar va hisobot talablarini soddalashtirish. Bu borada 2023-yilda KO'B subyektlariga Yagona bozorda ma'muriy tartib-qoidalarni hujjatlarni qayta taqdim etmasdan amalga oshirish imkonini beruvchi texnik tizim (Yagona Raqamli shlyuzning bir qismi (Single Digital Gateway, SDG)) ishga tushirildi. Natijada ishchilarni joylashtirish uchun deklaratsiyalash va litsenziyalash soddalashtirildi va raqamlashtirildi.

• 2027-yilgacha davom etuvchi Yevropa Ittifoqining turli moliyalashtirish dasturlari doirasida kichik va oʻrta korxonalar uchun mavjud boʻlgan 200 mlrd. yevrodan koʻproq kichik va oʻrta korxonalar uchun investitsiyalar hajmini oshirdi. InvestEU kichik va oʻrta biznes muhitini yaxshilash maqsadida aʼzo davlatlarni ragʻbatlantirish hamda InvestEUNing Yevropa uchun strategik texnologiyalarga bagʻishlangan yangi platformasi (Strategic Technologies for Europe Platform, STEP) doirasida taklif etilgan 7,5 mlrd. yevrolik Yevropa Ittifoqi kafolatining bir qismini kichik va oʻrta korxonalar uchun ajratilishi rejalashtirilgan.

Biznes sektori xususiy mablagʻlar hisobidan ilm-fanni moliyalashtirishning asosiy qismini tashkil etadi. U sarflangan mablagʻlar hajmi va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shugʻullanuvchi olimlar hamda muhandislar soni boʻyicha yetakchi hisoblanadi va kelajakda ham innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri boʻlib qolishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion siyosatni amalga oshirishga tizimli yondashuv konsepsiyasini amalga oshirgan davlatlar qisqa tarixiy davrda davlat, biznes, fan va taʼlim oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik mexanizmlarini oʻz ichiga olgan samarali milliy innovatsion tizimlarni yaratishga hamda yalpi ichki mahsulotning ilm-fan intensivligini oshirishga erishdilar.

Masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Skandinaviya mamlakatlari (Finlyandiya, Shvetsiya) keyingi yillarda ilmiy-texnika sohasining jadal kengayish mintaqalariga aylandi. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining ilm-fan intensivligini ikki baravar oshirib, Yevropa davlatlari va AQSh darajasiga yaqinlashmoqda. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni byudjetdan tashqari moliyalashtirish ushbu sohaga ajratiladigan byudjet mablagʻlari miqdoridan sezilarli darajada oshadi.

Byudjetdan tashqari mablagʻlarning asosiy manbai yirik milliy va transmilliy korporatsiyalar yetakchilik qilayotgan tadbirkorlik sektoridir. Rivojlangan mamlakatlarda biznes korporatsiyalari tarixan milliy innovatsion tizimlarning eng muhim tuzilmalari sifatida shakllangan. Aynan ular ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish, ilmiy natijalar va ixtirolarni real mahsulot hamda texnologiyalarga joriy etish bilan shugʻullanadi. Shu bilan birga, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy yoʻnalishlari boʻyicha iqtisodiy masʼuliyatni oʻz zimmalariga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻlmasov A., Sharifxoʻjaev M., Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: Mehnat, 1995. – 377 b.
2. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. Oʻquv qoʻllanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007. – B. 5.
3. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari: Dis. avt. ref... iqt. fan. d-ri. T., 2004. 18 b.
4. Папченкова М., Кувшинова О. Борьба за риск // Ведомости. 2013. № 183(3445). С. 4.

5. Семенова Н.М. Государственная поддержка малого и среднего бизнеса в кредитной сфере: Российская и международная практика // Содействие развитию малого и среднего предпринимательства: зарубежный опыт и российская практика. 2015. № 2. С. 179–186.

6. Федорова И.Ю. Финансовый менеджмент: проблемы становления и направления развития в бюджетном секторе экономики России // Экономика и предпринимательство. 2016. № 1-1(66-1). С. 250–253.

7. Stiglitz J., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. 1981, vol. 71(3). pp. 393–410.

8. <https://european-union.europa.eu> – Yevropa Ittifoqining rasmiy veb sahifasi.

9. <https://statista.com> – tadqiqotlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, sanoat statistikasi va demografik ma’lumotlarni taqdim etuvchi sayt.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**